

**“GINKGO BILOBA O’SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI,  
O’SIMLIKLER QOPLAMIDAGI O’RNI, TARQALISHI VA AHAMIYATI”**

*Toxirjonova Mubina Azamatjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada *Ginkgo biloba* o’simligining botanika tavsifi, o’simliklar qoplamasidagi o’rni, tarqalish sohasi va inson hayotidagi ahamiyati yoritiladi. *Ginkgo biloba* qadimgi o’simlik bo‘lib, uning ekologik, farmatsevtik va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi.

**Abstract:** This article describes the botanical characteristics, ecological role, distribution, and significance of the *Ginkgo biloba* plant. *Ginkgo biloba* is an ancient plant, and its ecological, pharmaceutical, and economic aspects are analyzed.

**Аннотация:** В данной статье описаны ботанические характеристики растения *Ginkgo biloba*, его роль в растительном покрове, ареал распространения и значение в жизни человека. *Ginkgo biloba* является древним растением, и в статье рассматриваются его экологические, фармацевтические и экономические аспекты.

*Ginkgo biloba* – dunyodagi eng qadimiylardan biri bo‘lib, uning tarixi 200 million yildan ortiq davrni o‘z ichiga oladi. U yagona tirik qolgan vakili hisoblanib, Ginkgoaceae oilasiga mansub. Ushbu o’simlik farmakologiya, ekologiya va landshaft dizaynida katta ahmiyatga ega. *Ginkgo biloba* – balandligi 20–35 metrga yetadigan, uzoq umr ko‘rvuchi daraxt bo‘lib, yelpig‘ichsimon barglari va ikki uqli gullah xususiyatiga ega. Uning urug‘lari yong‘oqsimon va o‘ziga xos hidga ega. *Ginkgo biloba* fotosintez jarayoni va tashqi muhitga chidamliligi bilan ajralib turadi. *Ginkgo biloba* turli ekotizimlarda uchrasa-da, asosan shahar landshaftlarida keng qo‘llaniladi. U ekologik muhitni yaxshilashda, havoni tozalashda va shaharlar estetik qiyoqasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, u genetik jihatdan barqaror turlardan biri hisoblanadi.

**Tarqalishi.** *Ginkgo biloba* o’simligining tarqalishi: *Ginkgo biloba* tabiiy

holatda faqatgina Xitoyning janubiy-sharqiy hududlarida yovvoyi holda uchraydi. Biroq inson tomonidan uni ko‘plab hududlarga, ayniqsa: Yaponiya, Koreya, AQSh, Yevropa mamlakatlari, Markaziy Osiyon hududlariga introduksiya qilingan (ya’ni sun’iy ravishda o‘tqazilgan). Xitoyda uni qadimdan madaniy, diniy va dorivor ahamiyatga ega daraxt sifatida qadrlashgan. Hozirgi kunda ko‘plab bog‘lar, xiyobonlar, shahar ko‘chalarida manzarali daraxt sifatida keng o‘tqaziladi, chunki u ekologik jihatdan toza, chang va tutundan kam zarar ko‘radi, sovuqqa, ifloslanishga chidamli.

**Ahamiyati.** a)Farmatsevtika: Ginkgo biloba barglaridan tayyorlangan ekstraktlar asab tizimini mustahkamlash, qon aylanishini yaxshilash va kognitiv funksiyalarni oshirishda ishlatiladi. b)Ekologiya: U havoni chang va gazlardan tozalash, tuproq eroziyasini kamaytirish va biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. d) Iqtisodiyot: Daraxt yog‘ochi va urug‘lari turli sanoat tarmoqlarida ishlatiladi, shuningdek, dekorativ maqsadlarda ekiladi.

**Xulosa.** Ginkgo biloba o’simligi noyob biologik va ekologik xususiyatlarga ega bo‘lib, inson hayotining turli jabhalarida keng qo‘llaniladi. Uning farmatsevtik, ekologik va iqtisodiy ahamiyati uni dolzarb o‘rganish lozim bo‘lgan o’simliklardan biriga aylantiradi. Kelajakda Ginkgo biloba bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar uning yangi ilmiy va amaliy jihatlarini ochib berishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ИСПОЛЬЗУЕМАЯ**

#### **ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:**

1. Qodirov A.Q., Tursunov Sh.T. "O’simlikshunoslik". – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018. – 320 b.
2. Karimov A.A. "Dorivor o’simliklar va ularning ahamiyati". – Toshkent: Fan, 2017. – 215 b.
3. Махмудов А.Х. "Фармакогнозия". – Ташкент: Медицина, 2019. – 280 с.
4. Singh, R. et al. "Ginkgo biloba: A living fossil with medicinal properties". Pharmacognosy Reviews, 2019, Vol. 13(25), pp. 39-45.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

5. Smith, J.V., Luo, Y. "Studies on Ginkgo biloba extract and neuronal protection". Journal of Ethnopharmacology, 2020, Vol. 227, pp. 1-9.
6. Китайская Фармакопея. – Пекин: Научное издательство, 2021. – 500 с.